O‘ZBEK VA INGLIZ MILLIY KINOLARIDA LEKSEMIK LINGVOKULTUREMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mamatqulova Marhaboxon Nuriddin qizi

Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek va ingliz milliy kinolarida qo‘llangan leksemik lingvokulturemalarning struktur-semantik xususiyatlari chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinadi. Oddiy leksik birlikning lingvokulturema maqomiga ega bo‘lishidagi besh bosqich va lingvokulturemalarning to‘rt tarixiy-kommunikativ bosqichi tavsiflanadi. “Mahallada duv-duv gap”, “Suyunchi”, “Four Weddings and a Funeral” va “A Private Function” filmlaridan ajratilgan 134 ta leksemik lingvokulturema sodda, yasama, qo‘shma (birikmali) va juft turlarga tasniflanib, ularning semantik va kontekstual xususiyatlari qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: *kino diskursi, lingvokulturema, leksemik lingvokulturema, milliy kino, struktur tasnif, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, semantik transformatsiya, madaniy kod, chog‘ishtirma tahlil.*

Kino mediadiskursning verbal, vizual va audial vositalarini birlashtiruvchi turi bo‘lib, xalqning madaniyati, turmush tarzi va tarixini yaxlit tarzda ko‘rsatadi. Milliy kinolarda qahramonlar nutqi, kiyimi, marosimlari va kundalik muloqoti orqali madaniyatning lisoniy shakli – lingvokulturemalar namoyon bo‘ladi. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot jadallashgan hozirgi davrda milliy filmlar xalqning o‘zligini boshqa madaniyatlarga tanishtiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda. Shu bois o‘zbek va ingliz milliy kinolaridagi lingvokulturemalarni struktur, semantik va kontekstual jihatdan chog‘ishtirma o‘rganish medialingvistika, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik uchun dolzarb vazifadir.

V.V.Vorobyev lingvokulturemani til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi, milliy-madaniy xususiyatga ega til birligi sifatida ta’riflaydi [2]. Sh.Safarov lingvomadaniy ifodalarni til va madaniyatning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan, xalq mentalitetini aks ettiruvchi vositalar deb hisoblaydi [10]. B.L.Vorf esa tilni madaniyatning ramziy tizimi sifatida talqin qiladi [14]. Tezisning maqsadi o‘zbek va ingliz milliy kinolarida qo‘llangan leksemik lingvokulturemalarni struktur jihatdan tasniflash va ularning semantik-kontekstual xususiyatlarini qiyoslashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek kino san’atining “Mahallada duv-duv gap” va “Suyunchi”, ingliz kinosining “Four Weddings and a Funeral” va “A Private Function” filmlari tanlandi. Ulardan jami 180 ta lingvokulturema (80 tasi o‘zbek,

100 tasi ingliz kino diskursida) ajratilib, shundan 134 tasi leksemik lingvokulturemalar sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda chog‘ishtirma, tasniflash, komponent, semantik, strukturaviy va kontekstual-pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

Leksik birlikning lingvokulturemaga aylanish bosqichlari

Tahlil oddiy leksik birlikning lingvokulturema maqomiga ega bo‘lishi besh bosqichli jarayon ekanini ko‘rsatdi. **Birinchi bosqichda** birlik nominativ vazifani bajaradi va denotativ ma’no kasb etadi: o‘zbek tilidagi *dasturxon* uy-ro‘zg‘or anjomini, ingliz tilidagi *home* yashash makonini nomlaydi. **Ikkinchi bosqichda** leksema ijtimoiy-madaniy kontekstga kirib, ma’nosi kengayadi: *dasturxon* mehmondo‘stlik va to‘kin-sochinlikni, *home* oila va ruhiy osoyishtalikni ifodalay boshlaydi. **Uchinchi bosqichda** birlik konnotativ, baholovchi va ramziy ma’nolar bilan boyiydi (*dasturxoni to‘kin-sochin*; *Home is where the heart is*). **To‘rtinchi bosqichda** u frazeologik birlik va maqollar tarkibida stereotiplashadi (*make yourself at home, home sweet home*). **Beshinchi bosqichda** esa birlik denotativ, konnotativ, assotsiativ va ramziy ma’nolarni mujassam etgan madaniy birlik sifatida barqarorlashadi.

Lingvokulturemalarning taraqqiyoti esa to‘rt tarixiy-kommunikativ bosqichda kechgan: xalq og‘zaki ijodi (ertak, doston, maqol), yozma-badiiy diskurs, sahna kommunikatsiyasi (teatr, qo‘shiq) hamda media va raqamli kommunikatsiya. So‘nggi bosqichda kino lingvokulturemalarni dialog, intonatsiya, mimika, libos va makon tasviri bilan birgalikda uzatuvchi muhim vositaga aylandi.

Leksemik lingvokulturemalarning struktur turlari

Leksema yaxlitligicha lingvokulturema bo‘la olgani uchun uni **leksemik lingvokulturema** deb nomlash mumkin. Ikki tildagi milliy kinolarda bunday birliklar tuzilishiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linadi.

Sodda leksemik lingvokulturemalar. O‘zbek kinolarida: *kelin, kuyov, mahalla, do‘ppi, sarpo, ro‘mol, osh, nikoh, samovar, hovli, hashar, choy*; ingliz kinolarida: *vicar, bride, groom, pub, church, parish, hymn, altar, aisle, toast, veil, coupon, shilling*. Masalan, *vicar* Angliya cherkovining muayyan hudud aholisi diniy ehtiyojlariga mas’ul ruhoniysini bildiradi va boshqa madaniyatlarda aynan shu vazifani to‘liq qamrovchi muqobilga ega emas. O‘zbek tilidagi *sarpo* lug‘aviy jihatdan kiyim-kechak yoki sovg‘a ma’nosini bildirsa-da, to‘y munosabati bilan qudalar o‘rtasida beriladigan sovg‘alar orqali hurmat, ijtimoiy maqom va nikohga xos qadriyatlarni ramziy ifodalaydi. *Samovar* esa o‘zlashma bo‘lishiga qaramay, o‘zbek madaniyatida guzardagi suhbat, mehmon kutish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi madaniy kodga aylangan.

Yasama leksemik lingvokulturemalar affiksatsiya orqali hosil bo‘ladi. Ingliz tilida *christening* (christen + -ing) chaqaloqni cherkovda suvga cho‘mdirib ism berish marosimini, *congregation* (congregate + -ion) cherkovdagi jamoaviy ibodat ishtirokchilarini bildiradi. O‘zbek tilida esa affiksatsiya ko‘proq emotsional-baholovchi ma’no yaratadi: *ko‘rpacha* (ko‘rpa + -cha) dasturxon atrofidagi oilaviy davra va mehmon kutish madaniyatini, *qurmagur* (qur + -ma + -gur) esa shaklan qarg‘ish bo‘lsa-da, kontekstda erkalash va samimiy hayratni ifodalaydi: *“Voy eshityabsizlarmi, voy, qurmagur, Oyposhsha-ey!”* Bu semantik transformatsiya hodisasi o‘zbek xalqona nutqiga xosdir.

Qo‘shma (birikmali) leksemik lingvokulturemalar. Ingliz kinolarida *bridesmaid, best man, wedding march, wedding service, money market, tea room, Sunday dinner, afternoon tea, black market, ration book, Battenberg cake* kabi birliklar ko‘p uchraydi. O‘zbek kinolarida esa *kuyovto‘ra, bemalolxo‘ja, A’zayimxon* singari birliklar qayd etildi. *Kuyovto‘ra* birligidagi *to‘ra* komponenti tarixan yuqori maqomli shaxslarga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, kuyovga alohida hurmat ko‘rsatishni ifodalaydi: *“Kuyovto‘ra kelyabdilar!”* Ingliz tilidagi *son-in-law* lug‘aviy jihatdan yaqin bo‘lsa-da, bu ehtirom semasini bermaydi. *Bemalolxo‘ja* (sifat + ot) birligida esa hurmatli *xo‘ja* komponenti loqayd shaxsga nisbatan qo‘llanib, kinoyaviy salbiy baho hosil qiladi.

Juft leksemik lingvokulturemalar faqat o‘zbek kinolarida uchradi: *kelin-kuyov, qo‘ni-qo‘shni, yor-yor*. Masalan, *yor-yor* kelin uzatishda ijro etiladigan an’anaviy qo‘shiq bo‘lib, kelinning ota uyi bilan xayrlashuvi va yangi oilaga o‘tishidagi his-tuyg‘ularini ifodalaydi; boshqa xalqlarning to‘y qo‘shiqlari bu emotsional mazmunni to‘liq bermaydi.

Emotsional-ekspressiv murojaat birliklari

O‘zbek kinolarida murojaat va erkalash bilan bog‘liq lingvokulturemalar alohida o‘rin tutadi: *“Unday bo‘lsa qo‘sha qaringlar, bolalarim, voy girgitton bo‘lay, o‘zim o‘rgilay, tasadduq bo‘lay!”* Bu yerda *girgitton bo‘lay* birligida ikkiyuzlamachilikni bildiruvchi *girgit* obrazi semantik transformatsiyaga uchrab, mehr ifodasiga aylangan; *o‘zim o‘rgilay* (o‘rgil + -ay) katta yoshdagilarning kichiklarga erkalash munosabatini, *tasadduq bo‘lay* esa islom madaniyatiga oid fidoyilik ma’nosini ifodalaydi. Ingliz kinolarida bunday zich emotsional murojaat birliklari kuzatilmadi; murojaat ko‘proq *dearly beloved* kabi rasmiy-marosimiy shakllarda namoyon bo‘ladi.

Tarixiy-ijtimoiy kontekstni ifodalovchi lingvokulturemalar

Leksemik lingvokulturemalar filmda tasvirlangan davr va ijtimoiy muhitni ham kodlaydi. “A Private Function” filmida urushdan keyingi tanqislik davri *ration book, coupon, bacon ration, fuel crisis, black market, Austerity Britain* kabi birliklar orqali ifodalanadi; ular bilan



birga *roast pork, pork pies, black pudding, tinned salmon* singari taom nomlari ham tanqislik sharoitida ijtimoiy maqom va orzu belgisi sifatida yangi semantik yuk oladi. “Four Weddings and a Funeral” filmida esa *Eton, posh voices, tail coat, detached collar* birliklari ingliz aristokratiyasi va tabaqaviy farqlarni kinoyali ohangda aks ettiradi. Bu birliklarning madaniy ma’nosi lug‘atdagi izohdan ko‘ra film voqeligi, personajlarning ijtimoiy mavqei va ekranda ko‘rsatilgan predmetlar bilan birgalikda anglashiladi.

O‘zbek kinolarida ham leksemik lingvokulturemalar sovet davri mahalla turmushini, xalqona e’tiqod va ijtimoiy munosabatlarni ochib beradi. Masalan, *A’zayimxon* birligi afsun, duo va xalqona davolash bilan shug‘ullanuvchi shaxsni nomlaydi: *“Jannati A’zayimxonga ikki yuz so‘m qistirsak, darrov mashuqasidan sovitib, Sayyoraxonga isitadi.”* Bu replika orqali tomoshabin inson taqdiriga duo va sehr bilan ta’sir qilish mumkinligi haqidagi xalqona tasavvur bilan tanishadi. *Mahalla, hashar, ulfatchilik, qo‘ni-qo‘shni* birliklari esa jamoaviy turmush, o‘zaro yordam va ijtimoiy nazoratni ifodalaydi. Shunday qilib, kino diskursida leksemik lingvokulturema verbal birlik, vizual tasvir va syujet konteksti uyg‘unligida to‘liq madaniy mazmun kasb etadi.

Miqdoriy natijalar va xulosa

Miqdoriy tahlil quyidagi manzarani ko‘rsatdi: sodda leksemik lingvokulturemalar o‘zbek kinolarida 19 ta, ingliz kinolarida 35 ta; yasama birliklar mos ravishda 6 va 7 ta; qo‘shma (birikmali) birliklar 6 va 58 ta; juft birliklar esa faqat o‘zbek kinolarida 3 ta uchradi. Demak, ingliz kino diskursida lingvokulturemalar asosan sodda va qo‘shma birliklar, ayniqsa “ot + ot” modelidagi aniqlovchili birikmalar orqali ifodalanadi, bu ingliz tilining analitik tabiatiga mos keladi. O‘zbek kino diskursida esa madaniy ma’no ko‘proq sodda leksemaning o‘zida mujassam bo‘lgan etnomadaniy semada, emotsional-ekspressiv yasama birliklarda va reduplikatsiya hodisasida namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda lingvokulturemalarning madaniy ma’nosi lug‘aviy izoh bilan cheklanmay, kino dialogidagi nutqiy vaziyat, personaj munosabati va vizual kontekst bilan birgalikda yuzaga chiqadi. Natijalar lingvokulturemalar lug‘ati, leksikologiya, lingvokulturologiya va chog‘ishtirma tilshunoslik fanlari bo‘yicha o‘quv materiallarini tayyorlashda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agar M. Language Shock: Understanding the Culture of Conversation. – New York: William Morrow and Company, 1994.

2. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997.

3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001.



4. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.

5. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997.

6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.

7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – New York: Oxford University Press, 1997.

8. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press. – URL: https://dictionary.cambridge.org

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 320 b.

11. Sharifian F. Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins, 2017.

12. Four Weddings and a Funeral [Film]. Rej. Mike Newell. – Buyuk Britaniya, 1994.

13. A Private Function [Film]. Rej. Malcolm Mowbray. – Buyuk Britaniya, 1984.

14. Whorf B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings. – Cambridge, MA: MIT Press, 1956.

15. Mahallada duv-duv gap [Film]. Rej. Shuhrat Abbosov. – O‘zbekfilm, 1960.